

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

KODIROVA SAODAT ABDIRAXIMOVNA

**“ZARBULMASAL” MAQOLLARI: SEMANTIK-STRUKTURAL VA
TADRIJIY TAKOMILNING QIYOSIY TAHLILI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Kodirova Saodat Abdiraximovna

“Zarbulmasal” maqollari: semantik-struktural va tadrijiy takomilning qiyosiy tahlili.....3

Kodirova Saodat Abdiraximovna

Пословицы «Зарбулмасал»: сравнительный анализ семантико-структурного и поэтапного совершенствования25

Kodirova Saodat Abdiraximovna

Proverbs "Zarbulmasal": a comparative analysis of semantic-structural and gradual improvement.....49

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....53

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.09 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

KODIROVA SAODAT ABDIRAXIMOVNA

**“ZARBULMASAL” MAQOLLARI: SEMANTIK-STRUKTURAL VA
TADRIJIY TAKOMILNING QIYOSIY TAHLILI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2021.2.PhD/Fil1742 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Buxoro davlat universiteti veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	To'xliyev Boqijon filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Eshonqulov Husniddin Pirimovich filologiya fanlari doktori, professor Turdimov Shomirza G'aniyevich filologiya fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc 03/04.06.2021.Fil.72.09 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «10» oktabr soat 11³⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865221-29-14; faks: (+99865221-29-14, email: buxdu_rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (364 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «25» sentabr kuni tarqatildi.
(2023-yil «25» sentabr dagi 1 -raqamli reestr bayonnomasi).



G'.N.Murodov
ilmiy kengash raisi,
DSc, professor

I.G'aybullayeva
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
filologiya fanlari doktori (PhD),
dotsent

D.Z.Rajabov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori
(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon folklorshunosligida xalq og‘zaki ijodini turli aspektlarda o‘rganish tobora keng tus olmoqda. Xalq maqollarining kelib chiqishi, semantik qiymati, turli asarlarda ishlatilishi, badiiy-estetik qimmatini kabi masalalarga bugungi kunda ham katta e‘tibor qaratilmoqda. Xalq og‘zaki ijodi millatning o‘zligi, o‘ziga xosligi, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy hayotini aks ettiruvchi oyna sifatida doim tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lganligi, maqollar mehnatkash xalq ommasining ma‘naviy qiyofasi, ideali, orzu-umidi, intilishlari hamda tabiat va jamiyat haqida yuritgan mulohazalarining sintezi, hayot tajribalarining umumlashma ifodasi ekanligi, shu sababli maqollarni folklorshunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik fanlari doirasida tadqiq etish dolzarblilik kasb etmoqda.

Dunyo folklorshunosligi va adabiyotshunosligida milliy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishiga turtki beruvchi, asosiy omil bo‘luvchi ijod namunalarini aniqlash, adabiyot, san‘at, til va madaniyatning o‘zaro aloqasi hamda ta‘siri bilan bog‘liq jarayonlarni ochib berish hamon dolzarblilik kasb etmoqda. Globallashuv davrida hayotimizning hamma jabhasida umumiy xarakterdagi muammolarning yuzaga kelish, madaniyatlarning uyg‘unlashish hollari namoyon bo‘lmoqda. Maqollar ta‘lim-tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega, ularning inson kamoloti, tarbiyasi va shaxs sifatida shakllanishidagi ahamiyatini aniqlash, o‘rganilishini keng targ‘ib qilish kabi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida mumtoz adabiyot va xalq og‘zaki ijodini o‘rganishga e‘tibor yanada ortdi. Xalqimizning noyob durdonalari jamlangan “Zarbulmasal” asarini o‘rganishga qiziqish ushbu asarning bir necha nashri bo‘lishiga qaramay, mustaqillik yillarida qayta va qayta nashr etilishi, mazkur asar haqida yozilayotgan maqolalar uning ma‘naviy-estetik qimmatini ko‘rsatadi. “Zarbulmasal” parchalarining maktab darsliklaridan joy olishi uning tarbiyaviy ahamiyatga egaligi, yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda “Zarbulmasal” maqollarining ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Milliy qadriyatlarimizni e‘zozlash va o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotini keng targ‘ib etishdagi, o‘z ijodi va ijrochilik faoliyati bilan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni ko‘p ming yillik madaniyatimiz sarchashmalaridan bahramand qilishni yanada keng targ‘ib qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek: «Adabiyot, san‘at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi»¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5850-son, 2017-yil 17-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son farmonlari; 2010-yil 26-fevraldagi «O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida

¹ Mirziyoyev Sh.M. «O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari» mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrik nutqi
<https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va-madaniyat>

«Ijod» fondini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-1292-son, 2017-yil 17-fevraldagi «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2789-son, 2017-yil 13-sentabrdagi «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi PQ-3271-son qarorlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi «2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 222-son, 2018-yil 26-apreldagi «Baxshichilik va dostonchilik san‘atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 304-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon folklorshunosligida xalq og‘zaki ijodi, jumladan, xalq maqollarini o‘rganish uzoq tarixga ega. Jumladan, rus folklorshunosligida T.A.Naymushina, T.A.Mirzayeva, Sh.Z.Aliyeva, K.N.Kipsabit, Y.S.Sishnikova, I.N.Germogenova, D.A.Martyanov, qirg‘iz tilida D.T.Davlatbekova ishlarida maqollarning turli aspekti tadqiq etilgan².

O‘zbek tilidagi maqollarning turli xarakterdagi to‘plamlari (N.Ostroumov, B.Rahmonov, Sh.Jo‘rayev, H.Zarifov, B.Karimov, Sh.Rizayev, O‘.Azimov, O‘.Xolmatov, M.Afzalov, S.Ibrohimov, S.Xudoyberganov, R.Jumaniyozov, E.Siddiqov, B.Sarimsoqov, I.Haqqulov, A.Musoqulov, R.Zarifov, B.Sarimsoqov, A.Musoqulov, M.Madrahimova, Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov, T.Mirzayev, A.Musoqulov va boshqalar), ularning boshqa, shu jumladan, ingliz, rus, fors, nemis tillardagi muqobillari bilan birga qilingan nashrlari (U.Povali, N.Gasunayeva, M.Sodiqova, K.M.Karomatova va H.S.Karomatov, Sh.Mirzo,

² Наймушина Т.А. Пословицы и поговорки в художественном тексте: диссертация канд. филол. наук. Ленинград, 1984. – 209 с.; Мирзаева Т.А. Оценка человека в пословицах и поговорках русского, английского, испанского и табасаранского народов: морально-нравственная сфера: автореф. диссер. канд. филол. наук. – Ставрополь, 2008. – 24 с.; Алиева Ш.З. Лексические и синтаксические особенности пословиц и поговорок аварского языка: автореф. диссер. канд. филол. наук. – Махачкала, 2016. – 24 с.; Кипсабит К.Н. Структурно-семантические особенности русских пословиц и поговорок с пространственно-временными характеристиками: автореф. диссер. канд. филол. наук. – Москва, 2002. – 24 с.; Сыщикова Е.С. Пословицы и поговорки в испанской периодической печати: автореф. диссер. канд. филол. наук. – Москва, 2007. – 24 с.; Гермогенова И.Н. Трансформация древнерусских переводных изречений в пословицы и поговорки: автореф. диссер. канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2007. – 24 с.; Давлетбакова Д.Т. Киргизские пословицы и поговорки из собрания академика К. К. Юдахина: Принципы и опыт перевода на русский язык: диссер. канд. филол. наук. – Бишкек, 2000. – 139 с.; Мартъянов Д.А. Сборники русских пословиц и поговорок первой половины XVIII века как историко-лексикографический источник: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Казань, 2012. – 22 с.; Матвеева Т.В. К лингвистической теории жанра / Т.В. Матвеева // Collegium. – 1995. – № 1- 2. – С. 65-71.

H.Ibrohim, M.Abdusamatov, F.Xamidxonova va boshqalar) chop etilgan bo‘lib, bu va boshqa to‘plamlar³ o‘zbek tilidagi ko‘plab maqollarni o‘z ichiga qamrab olgan. Shuningdek, P.Bakirov, B.Jo‘rayeva, M.Temirova, D.Turdaliyeva, O.Uralova, G.Ergasheva, X.Abduraxmonov, Y.U.Nurova, M.J.Sharipova kabi olimlar tomonidan maqollar turli aspektda o‘rganilgan⁴. Badiiy asarlarda maqollarning berilishi masalasi A.Jo‘raxonov, M.To‘ychiyev, S.Normamatov tomonidan qisman tadqiq etilgan⁵.

O‘zbek folklorshunosligida xalq maqollari ham atroflicha o‘rganilgan. Tilshunoslik aspektda R.Rasulov tomonidan amalga oshirilgan nomzodlik, P.Bakirov tomonidan tipologik yo‘sinda amalga oshirilgan doktorlik dissertatsiyalarini alohida ta’kidlash lozim. Badiiy asarning til xususiyatlari ham bir necha tadqiqotlarning obyekti bo‘lgan⁶.

“Zarbulmasal”da o‘zbek xalq maqollarining xususiyatlari, ularning semantikasi va matniy tadqiqiga doir ayrim tadqiqotchilar tomonidan yo‘l-yo‘lakay aytilgan ayrim fikrlar⁷ni e’tiborga olmaganida, fanimizda bu masala maxsus tadqiq qilinmagan.

³Ўзбек халқ мақоллари. (Тузувчилар: Т.Мирзаев, А.Мусоқулов, В.Саримсоқов) – Т.: “Шарқ”, 2005. – 512 б.; Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбек совет энциклопедияси Бош редакцияси, 1990. – Б.209.

⁴ Бакиров П. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис... докт. филол. наук. – Ташкент, 2007. – 287 с.; Жураева Б. Мақолларнинг лисоний мавқеи ва маъновий-услубий қўлланиши: Филол. фанлари номзоди дисс. – Бухоро, 2002. – 136 б.; Темирова М. Ўзбек ва қирғиз халқ мақоллари типологияси. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дис. – Тошкент, 2018. – 166 б.; Турдалиева Д.Т. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик хусусиятлари. Филол. фанлари фалсафа д-ри дисс. – Фарғона, 2018. – 144 б.; Уралова О.П. Инглиз ва ўзбек тилларида “оила” бош лексемали мақоллар семантикаси ва структураси. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. – Самарқанд, 2021. – 144 б.; Эргашева Г. Инглиз ва ўзбек тиллари фразеологизм ва паремияларида гендер аспектининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол. фанлари номзоди дисс. – Тошкент, 2011. – 164 б.; Абдурахмонов Х. Синтаксисекие особенности узбекских народных пословиц: Автореф. дисс.канд. филол.наук. – Тошкент, 1964.; Абдурахмонов Х. Особенности синтаксиса узбекского устного народного творчества: Автореф. дисс... докт. филол.наук. – Тошкент, 1977. – 48 с.; Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари ва прагматик хусусиятлари: Филол. фанлари докт. дисс. – Самарқанд, 2021. – 206 б.; Nurova Y.U. O‘zbek xalq paremalarining etnolingvistik xususiyatlari: f.f.b.f.d. avtoref. –Buxoro, 2023. -48 b; Sharipova M.J. Chorva nomlari asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarining lingvopoetik va uslubiy xususiyatlari: f.f.b.f.d. avtoref. –Buxoro, 2023. -48 b.

⁵Жўрахонов А. Муқимийнинг халқ мақолларидан фойдаланиш маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти, 1974. – № 4. – Б.52-55.; Тўйчиев М. «Шинелли йиллар» романида халқ мақоллари ва ибораларнинг ишлатилиши // Ўзбек фразеологиясидан тадқиқотлар. СамДПИ асарлари. – Самарқанд, 1971. – Б.84-87.; Нормаматов С. Авлоний шеърларида мақол ва иборалар // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. №3. – Тошкент, 2009. – Б.139-141.

⁶Султонов И. Бадий асарнинг тили // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1939, – № 5; Фуломов А. Бадий адабиётнинг тили ҳақида // Адабиёт ва санъат. Тошкент 1941, – № 1; Қўчқортоев И. Бадий нутқ стилистикаси. –Тошкент, 1975; Абдуллаева Л. Лексическая стилистика узбекской художественной литературы. – Ташкент: Фан, 1979.; Юлдашев М.М. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари докт-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2009.; Мирзакаримова Ў. “Девону луғотит турк” даги айрим мақолларнинг тил хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980. – №3. – Б.31-35.; Бакиров П. Рус мақолларидаги шахсни англатувчи ўзлашма туркий сўзлар (товариш, богатырь, атаман, казак сўзларининг этимологияси ҳақида) // Ўзбек тили ва адабиёти, 2005. – №2. – Б.98.; Жўраева Б. Мақолларда синонимия ҳодисаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 2000. – №5. – Б.58.; Махмудов Ф. Шакли ўзгартирилган мақоллар таржимаси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1986. – №3. – Б.47.; Тошпўлатова Д. “Қутадғу билиг” асаридаги мақоллар таржимаси хусусида (Асарнинг инглиз ва рус тилларига таржималари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006. – №5. – Б.71.

⁷Назарова Х. “Зарбулмасал”нинг баъзи бир лексик хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1959. – №2. – Б.66-71.; Исҳоқов Ф. “Зарбулмасал”даги қуш номларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973. – №1. – Б.46-

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan muvofiq "O'zbek adabiyotining dolzarb muammolari" (2020-2024-y.) yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Gulxaniyning "Zarbulmasal" asaridagi maqollar manbalari, ularning rivojlanish xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

asardagi maqollarning mavzu doirasini belgilash va ularning tasnifini amalga oshirish;

asardagi maqollarning qo'llanishida zullisonaynlik an'anasi mohiyatini ko'rsatish va uni ilmiy baholash;

asardagi maqollarning qadimgi manbalar, xususan, "Devonu lug'otit turk"dagi variantlari, shuningdek, hozirgi o'zbek maqollari bilan qiyosiy tahlilini amalga oshirish;

maqollarning tarkibi va tuzilishiga oid o'ziga xosliklarni aniqlash, "Zarbulmasal" tarkibidagi maqollar poetikasini tadqiq etish, ushbu maqollarning tarbiyaviy hamda adabiy-estetik imkoniyatlarini baholash;

"Zarbulmasal"ning turli nashrlaridagi maqollar matnidagi farqlar aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida "Zarbulmasal"ning H. Yoqubov nashri (1960), S.Dolimov nashri (1972), F.Is'hoqov nashri (1974) nusxalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini asardagi maqollarning tadrijiy takomilini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, semantik, qiyoslash, komponent tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi mazkur ishning quyidagi asosiy xususiyatlari bilan belgilanadi:

yo'zma adabiyotda maqolni qo'llashda bir shoir bir maqolni o'zining turli asarlarida qo'llab, turlicha poetik vazifa bajartirishi, bir maqolni bir asrning turli davrlarida, hatto turli asrlarda shoirlar qo'llab, o'z asarlarining g'oyaviy-badiiy pishiqligini ta'minlashga erishishlari, bir maqolni bir davrda turli shoirlar turli poetik maqsad bilan qo'llashi kabi o'ziga xosliklari zullisonaynlik an'anasi asosida dalillangan;

asardagi maqollarning qadimgi manbalar, xususan, "Devonu lug'otit turk"dagi variantlari, hozirgi o'zbek maqollari asosida o'zbek xalq maqollarining tadriji qadimgi asrlarga borib taqalishi isbotlangan;

"Zarbulmasal"dagi maqollarning mavzu doirasi belgilanib, ularning semantik-strukturasiga oid mehmon va mehmondo'stlik, yaxshi so'z va yomon so'z, to'g'ri so'z va yolg'onchilik, umid va umidsizlik, to'g'rilik va egrilik, me'yor va me'yorsizlik, naqd va nasiya, qudrat va ojizlik kabi ma'naviy jihatlari aniqlangan;

"Zarbulmasal" maqollarida ma'noga asoslangan, shaklga asoslangan, shakl va ma'noga asoslangan – majoz, tazod, mubolag'a, tablig', tashxis, ruju, tanosib, istiora, tadrij, tanosib, mukarrar, tamsil kabi badiiy san'atlar kontekst mazmunini

50.; Фозилов Э., Шукуров Ш., Каримов Қ. Гулханийнинг "Зарбулмасал" асари. (Ф.Исхақовнинг шу номли китоби (Тошкент, 1976) ҳақида) // Ўзбек тили ва адабиёти, 1978. – №4. – Б.80-83.

kuchaytirishga, uning ma'nosini ta'sirchanlik darajasini oshirishga xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

“Zarbulmasal”dagi maqollarning semantik guruhlari aniqlangan;

“Zarbulmasal”ning nashr variantlari maqollari matniy qiyoslangan;

“Zarbulmasal” maqollarining mavzuviy guruhlari muayyanlashtirilgan;

“Zarbulmasal”dagi maqollarning badiiy-estetik qimmatlari ochiq.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan yondashuvlar, usullar, nazariy ma'lumot va misollarning ilmiy nashrlardan olinganligi, respublika, xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya to'plamlari, OAK ro'yxatidagi jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan o'zbek va jahon paremiologiyasi namunalarini tahlil qilish va tavsiflashda qo'shimcha manba va material vazifasini bajarishi mumkinligida namoyon bo'ladi.

Ularning amaliy ahamiyati o'zbek maqollarini sirasiga ko'plab yangi namunalari qo'shilgani hamda ularning mavzu doirasining kengaytirilishiga hissa qo'shgani, shuningdek, ularning o'zbek-tojik adabiy aloqalari tarixida alohida o'rin tutishining ko'rsatib berilgani bilan izohlanadi.

Shuningdek, “O'zbek adabiyoti tarixi”, “Xalq og'zaki ijodi”, “Folklorshunoslik”, “Uslubiyat”, “Lingvopoetika” kabi fanlarning dasturlarini tuzishda ham ushbu tadqiqot tayyor material vazifasini o'taydi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Olingan ilmiy natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

yozma adabiyotda maqolni qo'llashda bir shoir bir maqolni o'zining turli asarlarida qo'llab, turlicha poetik vazifa bajartirishi, bir maqolni bir asrning turli davrlarida, hatto turli asrlarda shoirlar qo'llab, o'z asarlarining g'oyaviy-badiiy pishiqligini ta'minlashga erishishlari, bir maqolni bir davrda turli shoirlar turli poetik maqsad bilan qo'llashi kabi xulosalardan OT-F1-030 raqamli “O'zbek adabiyoti tarixi” (2017-2020-y.) nomli amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 4-fevraldagi 01/4-238-son ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiya 2-3-bobiga tegishli materiallardan lingvomadaniy bo'yoqdor so'zlar leksikonini tuzishda foydalanilgan;

asardagi maqollarning qadimgi manbalar, xususan, “Devonu lug'otit turk”dagi variantlari, hozirgi o'zbek maqollari asosida o'zbek xalq maqollarining tadriji qadimgi asrlarga borib taqalishi kabi xulosalardan O'ZMTRK “Buxoro” telekanalining “Assalom, Buxoro”, “Sakkizinchi mo'jiza” kabi turkum ko'rsatuvlari hamda Buxoro radiosining “Ijod zavqi” va “Qadamiyat nafasi” eshittirishlarini ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasi 2023-yil 11-apreldagi 01-09-91-son ma'lumotnomasi). Natijada radio dasturlarda berilgan ko'rsatuvlar orqali tinglovchilarning o'zbek

xalq og‘zaki ijodiyoti ma’naviy hayotimizga daxldorligi haqidagi xulosalar boyitilgan;

“Zarbulmasal”dagi maqollarning mavzu doirasi belgilangan, ularning semantik-strukturasiga oid mehmon va mehmondo‘stlik, yaxshi so‘z va yomon so‘z, to‘g‘ri so‘z va yolg‘onchilik, umid va umidsizlik, to‘g‘rilik va egrilik, me‘yor va me‘yorsizlik, naqd va nasiya, qudrat va ojizlik kabi 49 ta ma’naviy guruhlariga oid xulosalardan Oliy ta’limning 5111700-Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalar uchun yaratilgan “Ona tili o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmada foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 19-iyuldagi 233-son buyrug‘i, 233-0337-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada ona tili va o‘qish savodxonligi hamda sinfdan tashqari o‘qish darslariga oid o‘quv adabiyoti takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 13 ta jumladan, 10 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan 31 ta ilmiy maqola va tezislari chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, xorijiy jurnallarda 9 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, jami 132 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy tadqiqotning mavzusi va uning dolzarbligi asoslangan, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, ilmiy ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shu bilan birgalikda, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, erishilgan natijalarning amaliyotga joriy etilishi, ilmiy nashrlarda e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “Zarbulmasal”ning paydo bo‘lishi va mohiyati deb nomlangan bo‘lib, unda maqolning adabiy manbashunoslik omili sifatida qiymati hamda “Zarbulmasal”ga adabiyotshunoslarning bahosi haqida fikr yuritiladi. Bobning birinchi bo‘limi “*Maqol adabiy manbashunoslik omili sifatida*” deb ataladi.

Maqol o‘zbek xalq og‘zaki ijodining qadimiy ommaviy janrlaridan biri bo‘lib, ularda xalqimizning dunyoqarashi, jamiyatga bo‘lgan munosabati va axloqiy normasi o‘z ifodasini topadi. Maqollar mehnatkash xalq ommasining ma’naviy qiyofasi, ideali, orzu-umidi, intilishlari hamda tabiat va jamiyat haqida yuritgan mulohazalarining sintezi, hayot tajribalarining umumlashma ifodasidir. Maqollar ta’lim-tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega. B.Sarimsoqov “Maqollar” maqolasida maqol va matal janrini chog‘ishtirib, maqolda fikr aniq, tugal, lo‘nda

hukm tarzida ifodalanishini, matalda tugal fikr ifodalanmasligini⁸ aytib o‘tadi. “Devonu lug‘otit turk”da turli mavzulardagi xalq maqollari keltiriladi va ularning mohiyati yoritilib, ishlatilish o‘rni ham ko‘rsatiladi. Unda vatanparvarlik, vatanga muhabbat, vatanni ardoqlash mavzusidagi maqollar ham uchraydi: “Tulku o‘z iniga ursa, ujuz bo‘lur” (Tulki o‘z uyasiga qarab ulisa qo‘tir bo‘ladi). Mahmud Koshg‘ariy bu maqolni shunday izohlaydi: “Bu maqol o‘z elini, urug‘ini va mamlakatini yomonlovchilarga qarata aytiladi”.

Yozma adabiyotda maqolni qo‘llashda o‘ziga xosliklar ko‘zga tashlanadi: 1. Bir shoir bir maqolni o‘zining turli asarlarida qo‘llab, turlicha poetik vazifa bajartirishi mumkin. 2. Bir maqolni bir asrning turli davrlarida, hatto turli asrlarda shoirlar qo‘llab, o‘z asarlarining g‘oyaviy-badiiy pishiqligini ta‘minlashga erishishlari mumkin. 3. Bir maqolni bir davrda turli shoirlar turli poetik maqsad bilan qo‘llashi mumkin. Demak, maqolning yozma adabiyot, jumladan, she‘riyat bag‘rida uchrashi holati asrlardirki, davom etib kelmoqda va bu hodisa folklor bilan yozma adabiyot munosabatlarida muhim ahamiyat kasb eta oladi.

She‘riyat va nasrda ifodalanayotgan biron fikrni isbotlash uchun xalq maqolini keltirish san‘ati irsoli masal (maqol kiritish) sanaladi⁹. She‘riyatimiz tarixida maqol, matal va hikmatli so‘zlarning poetik maqsadi uchun ishlatilishida, asosan, uchta muhim xususiyat ko‘zga tashlanadi: 1. Keltirilayotgan maqol yoki matal “masaldur” yoki “masaldurkim” so‘zi yordami bilan aniq ishora qilinadi, uning xalq orasida ma‘lum va mashhur ekanligi ta‘kidlanadi. 2. Maqol yoki matal hech qanday ishorasiz aynan keltiriladi. 3. Maqol yoki matalning mazmuni saqlangan holda, uning shakli biroz o‘zgartirilib she‘r vazni talabi bilan yangicha shaklda ifodalanadi.

Ahmad Yugnakiy “Hibatul-haqoyiq” asarida badiiy til vositalari, xalq maqollari va ta‘birlarini qo‘llash orqali dostonning badiiylikini oshirishga muvaffaq bo‘lgan. Xalq maqollari va ta‘birlari dostonning tilini ham, mazmunini ham birmuncha boyitgan. Xalq maqollariga alohida e‘tibor bergan shoir bunday degan edi:

Bezadim kitobi mavoiz masal,

Boqig‘li, o‘qug‘li osig‘ olsu tep (O‘qigan va eshitganlar foydalansin deb, kitobimni nasihat va maqollar bilan bezadim). Adib xalq maqollarini aynan yoki ularning mazmunini saqlagan holda shaklini she‘riy misralarga muvofiqlashtirib beradi. Yusuf Xos Hojib qo‘llagan maqollarning poetikasi haqida A.Fitrat, N.Mallayev, Q.Karimov, B.To‘xliyev, A.Valitova, H.Abdullayevlarning ishlariga havola bilan cheklanish mumkin.

Gulxaniy qo‘llagan maqollarning ma‘rifiy, adabiy, estetik ahamiyati juda katta. Ilmiy adabiyotlarda bu borada ancha jiddiy va salmoqli gaplar aytilgan¹⁰. Alohida ta‘kidlash joizki, ularning ilmiy ahamiyati ham juda katta. Xususan, folklorshunoslik uchun ularning o‘z davridagi holati va qo‘llanish sohasi, ayrim

⁸ Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б. 92.

⁹ Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадийят малоҳати. – Тошкент: “Шарқ”, 2002. – 168 б. – 59-б.

¹⁰ Исҳоқов Ф. Гулҳаний. – Ўзбек адабиёти тарихи. Беш томлик. IV том. XVIII асрнинг охири XIX асрнинг биринчи ярми. – Тошкент, Фан, 1978. – 96-б.; Гулҳаний “Зарбулмасал”нинг изоҳли луғати / Тузувчи Фатҳиддин Исҳоқов. Масъул муҳаррир А.Рустамов. – Тошкент, ТДШУ, 1988.

maqollarning versiya va variantlari haqida ham boy tasavvurlar uygʻota oladi. Ayni mana shu jihatlari ularning matnshunoslik va manbashunoslik uchun ham katta ahamiyat kasb etishiga olib kelgan. Mulohazalarimizni ayrim misollar yordamida izohlashga harakat qilamiz. Kitobning boshlanishidayoq oʻziga xos maqollarga duch kelamiz:

1. “Oshuqgʻon qiz erga borsa, yorchimas va teshik munchoq yerda qolmas”¹¹.
2. “Poʻlat pichoq qinsiz qolmas”¹².
3. “Bosh omon boʻlsa, boʻrk topilur”¹³.
4. “ Ermon yogʻochining egilgani – singani, Er yigitning uyalgani – oʻlgani”¹⁴.

Ushbu maqollar Gulxaniy yashagan zamonda ayni mana shu shakllarda qoʻllangan. Ularni hozirgi maqollar bilan qiyoslaydigan boʻlsak, koʻplab yangi xulosalarga ega boʻlamiz. Tasavvurning aniqroq boʻlishi uchun ularni jadval tariqasida keltiramiz:

1.1.-jadval

Gulxaniyda:	Hozirgi oʻzbek tilida:
Oshuqgʻon qiz erga borsa, yorchimas va teshik munchoq yerda qolmas ¹⁵ .	Shoshgan qiz erga yolchimas. Teshikmunchoq yerda qolmas.
Poʻlat pichoq qinsiz qolmas ¹⁶ .	Pichoq qinsiz qolmaydi.
Bosh omon boʻlsa, boʻrk topilur ¹⁷ .	Bosh omon boʻlsa, doʻppi topiladi.
Koʻr tutganini qoʻymas va kar eshitganini qoʻymas ¹⁸ .	Koʻr tutganini qoʻymas va kar eshitganini.

Eʼtibor berilsa, keltirilgan maqollar bilan ularning hozirgi koʻrinishlari oʻrtasida yaqinliklar nihoyatda koʻp. Shunga qaramay, ularning orasida ayrim tafovutlar ham koʻzga tashlanadi. Bularni shunday umumlashtirish mumkin:

1. Ayrim maqollar hech qanday oʻzgarishsiz qoʻllanadi.
2. Maqollarning bir qismida fonetik oʻzgarishlargina mavjud, xolos (“Teng-tengi birla, tezak qopi birla”). Ularning shakl va mazmunidagi bir xillik deyarli saqlangan.
3. Yana bir guruh maqollarda tegishli tafovutlar mavjud. Ularni shunday guruhlashtirish maqsadga muvofiq koʻrinadi: a) ayrim maqollarda qoʻllangan soʻzlar almashtirilgan (Eshagining feʼli egasiga maʼlum). Bunda koʻproq soʻzning semantik-uslubiy xususiyatlari eʼtiborga olingan; b) maqollarda ixchamlashish hodisasi mavjud (“Koʻr tutganini qoʻymas va kar eshitganini qoʻymas”); d) ayrim maqollar ikki komponentli koʻrinishdan bir komponentli shaklga kelgan (“Oshuqgʻon qiz erga borsa, yorchimas va teshik munchoq yerda qolmas”). Koʻpincha ikki komponentli maqolning alohida-alohida qoʻllanadigan ikkita maqolga ajralib ketish jarayoni kuzatiladi; g) ayrim hollarda qoʻshkomponentli

¹¹Gulxaniy. Zarbulmasal. Nashrga tayyorlovchi: H.Yoqubov. – Toshkent, “Maʼnaviyat”, 2009.– 10-b.

¹²Oʻsha asar.– 10-b.

¹³Oʻsha asar.– 10-b.

¹⁴Oʻsha asar.– 10-b.

¹⁵Oʻsha asar.– 10-b.

¹⁶Oʻsha asar.– 10-b.

¹⁷Oʻsha asar.– 10-b.

¹⁸Oʻsha asar.– 10-b.

maqollardan faqat bittasigina (Ko‘r tutganini qo‘ymas) keyinchalik faollikni saqlagani holda boshqa birining (Kar – eshitganini) umuman, passivlashuvi ham kuzatiladi.

Bobning ikkinchi fasli “Zarbulmasal”dagi maqollar tizimi” deb ataladi. “Zarbulmasal” – o‘zbekcha nasriy badiiy yodgorlikning noyob namunasi bo‘lishi bilan birga, tuzilishi, mazmuni, tili, badiiy tasvir vositalarining o‘tkirliги jihatidan ham tengi, o‘xshashi yo‘q original asardir¹⁹. Gulxaniyshunos olimlar F.Namangoniyning Gulxaniy haqidagi bu aytganlariga va Gulxaniy g‘azallarining ba‘zi til xususiyatlariga asoslanib, uning Qo‘qonga G‘arm yoki Darvoz tomondan kelib qolgan bo‘lishi mumkinligini taxmin qiladilar²⁰.

Po‘latxon Qayumovning “Tazkirayi Qayyumiyy” tazkirasida esa “Majmuayi shoiron”da keltirilgan ma‘lumotlarning birmuncha aniqlangan ko‘rinishiga duch kelamiz. Bunda aytilishicha, Gulxaniyning o‘zi emas, uning otasi Qorategindan kelgan bo‘lib, Qo‘qonda uylangan, Gulxaniy ham Qo‘qonda tug‘ilib, shu yerda voyaga yetgan, degan fikr ilgari surilgan: “Gulxaniy – Ho‘qand shahrida Sarbotur mahallada tug‘ulib, shunda tarbiyalanib o‘smish askariy bir xodim bo‘lib, nomi Muhammad Sharifdur. Otasi tojiklardan bo‘lub, onasi o‘zbekdur. Xudoyquli bahodir nomli sarkarda Qorateginli sipohning jamoasiga mansub ekani so‘zlanadur. Otasi yoshligida vafot etmish. Xudoyquli Bahodirning tarbiyasida o‘qub askariy mulozim sifatida yurub shul bahodirning orqasida saroyga xizmat ila kirib qolgani holda bahodirning vafotidan keyin saroy aristokrat sarkardalar surub qo‘ymushlardur²¹. Sodda va yumshoq ko‘ngilli ekani askariy sarkardaligi bir-biriga to‘g‘ri kelmagan ikki axloqdur. Adabiy mashg‘ulot Muhammad Sharifda g‘olib ekani ko‘rinadur²². Dilshodi Barno “Tarixi muhojiron” asarida ham Gulxaniy haqida ma‘lumot beradi. Dilshodi Barno xabariga qaraganda ham, Gulxaniy o‘z umrining so‘nggi yillarida qalandarlar haqida hayot kechirgan, qashshoq shoirlar bilan hammom go‘laxida kun o‘tkazgan²³. Dilshod (Barno) otinning yozganlaridan “Gulxaniy”ning vafotini chamalab ko‘rish mumkin²⁴. Dilshodi Barno “Tarixi muhojiron” asarida xon o‘rdasidan xorij bo‘lib chiqayotgan tunda hammom go‘laxida makon tutgan bir necha qalandarlar haqida duch kelganini eslab yozadi: “Bu kulbaga kelganimdan bir necha yil keyin mazkur qalandarlar ila shunos bo‘ldum. Chunonchi, ikki yil o‘tgandan keyin bir zaifa vositasi ila shoir Mahzuf ro‘zgarlari ila vaslga muyassar o‘lundi. Ul buzruk adib sabablari ilan Muntazir va Gulxaniy borasida ilm paydo bo‘ldi. Ammo shoir va mutafakkir Gulxaniy bore favt bo‘lg‘on ekan²⁵.”

Bizningcha, Gulxaniyning ajdodlari tog‘liklardan bo‘lsa ham, o‘zi Qo‘qonda tug‘ilib, shu muhitda voyaga yetgan. Aks holda, uning o‘zbek tili bisoti va xalq urf-u odatlarini “Zarbulmasal”dagichalik chuqur bilishi, askiyachilikda shuhrat topishi va o‘zining bu sifatlari bilan saroy shoirlari doirasiga kirib borishi oson

¹⁹ Исҳоқов Фатҳиддин. Гулханий “Зарбулмасал”нинг илмий танқидий матни: Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 1997. – 24 б.

²⁰ О‘sha asar. – 10-b. – 14-15 б.

²¹ Қайюмов П. Тазкираи Қайюмий. ЎзФА Қўлэзмалар институти тахририй нашриёт бўлими. – Тошкент, 1998. – 137 б.

²² О‘sha asar. – 138- б

²³ Исҳоқов Фатҳиддин. Гулханий “Зарбулмасал”нинг илмий танқидий матни: Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 1997. – 18 б.

²⁴ О‘sha asar. – 18- б.

²⁵ Дилшод Барно. Сабот ул башар маа тарихи муҳожирон. Қўлэзма. – 23 б.

bo‘lmas edi²⁶, deb yozadi filologiya fanlari doktori F.Is‘hoqov. “Zarbulmasal” – o‘zbekcha nasriy badiiy yodgorlikning noyob namunasi bo‘lishi bilan birga, tuzilishi, mazmuni, tili, badiiy tasvir vositalarining o‘tkirliги jihatidan ham tengi, o‘xshashi yo‘q original asardir²⁷.

V.A.Abdullayev esa muallifning ushbu asarni yozishdagi mahoratini quyidagicha baholaydi: “Gulxaniy “Zarbulmasal” asarini yozish uchun ancha vaqt tayyorgarlik ko‘rib yurdi; masal janrining xususiyatlarini yaxshi o‘zlashtirdi. Bir necha vaqt davomida jamiyatning turli tabaqa kishilari bilan muomala-munosabatda bo‘lib, xalq maqollarini, hikmatli so‘zlarini to‘pladi. Ana shu jihatdan Gulxaniyni xalq og‘zaki ijodining eng ixcham namunalaridan biri sanalgan zarbulmasal va maqollar to‘plovchi yoki, boshqacha qilib aytganda, adib-folklorist deyish mumkin”²⁸.

Asarning muqaddima qismida Gulxaniy “Zarbulmasal”ning yozilish tarixiga oid qiziq bir voqeani hikoya qiladi. Amir Umarxon saroyida bo‘lib turadigan odatdagi “Bazmi Jamshidlar” – adabiy kechalardan birida “burung‘i – yaxshilardin qolg‘on zarbulmasallarning so‘zlanmishda va chechanlik bobida” tutgan muhim o‘rni ustida so‘z ketadi. Suhbatda Amir Navoiyning “Oshni ta‘mi tuzi bilan, suvning ta‘mi muz bilan” degan so‘zlari esga olinib, ra‘yi oliy (Amir Umarxon e‘tibori) xalq ichidagi shu zarbulmasallarni to‘plash zarurligiga qaratiladi. Ushbu topshiriqdan keyin adib “Amirning amrlarini vojib bilib”, “Zarbulmasal”ni yozishga kirishadi va “Yapaloqqush bilan Boyqushning qudaliqlari arosinda to‘rt yuz zarbulmasali avomunnos”ni botartib bayon qilmoqchi bo‘ladi²⁹. Asarning yozilish tarixiga oid bu qisqagina tasvirdan kelib chiqadigan kattagina xulosalar bor. Biri shuki, Amir va uning atrofidagi kishilar Mulla Gulxaniyning xalqchil tabiati va o‘tkir adabiy qobiliyatini tan olganlar. Ikkinchi tomondan, o‘zidagi qobiliyatni to‘laroq namoyon qilish uchun Gulxaniyga yuqoridan shunchaki bir ishora zarur edi, shu ishora bahona “Zarbulmasal” dunyoga keldi³⁰.

Gulxaniy “Zarbulmasal” asarini yozish uchun ancha vaqt tayyorgarlik ko‘rib yurdi; masal janrining xususiyatlarini yaxshi o‘zlashtirdi. Bir necha vaqt davomida jamiyatning turli tabaqa kishilari bilan muomala-munosabatda bo‘lib, xalq maqollarini, hikmatli so‘zlarini to‘pladi. Ana shu jihatdan Gulxaniyni xalq og‘zaki ijodining eng ixcham namunalaridan biri sanalgan zarbulmasal va maqollar to‘plovchi yoki, boshqacha qilib aytganda, adib-folklorist deyish mumkin³¹.

“Zarbulmasal”ning Gulxaniy yashab turgan vaqtda ko‘chirilgan nusxasi uchramaydi. “Zarbulmasal” nusxalarining hammasi shoir vafotidan kamida 30-40 yil o‘tib qalamga olingan bo‘lib, til materiallari bo‘yicha nusxalar bir-biridan farq qiladi³². “Zarbulmasal”ning hozirga qadar 8 qo‘lyozma nusxasi va o‘ndan ziyod bosma nusxalari borligi aniqlangan.

²⁶ Исҳоқов Фатҳиддин. Гулханий “Зарбулмасал”нинг илмий танқидий матни: Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 1997. – 16 б.

²⁷ Исҳоқов Фатҳиддин. Гулханий “Зарбулмасал”нинг илмий танқидий матни: Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 1997. – 24 б.

²⁸ Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1964. – 276 б.

²⁹ Исҳоқов Фатҳиддин. Гулханий “Зарбулмасал”нинг илмий танқидий матни: Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 1997. – 24-25 б.

³⁰ O‘sha asar. – 25- b.

³¹ Абдуллаев В.А. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1964. – 276 б.

³² Исҳоқов Фатҳиддин. Гулханий “Зарбулмасал”нинг илмий танқидий матни: Филол. фан. докт. дисс. – Тошкент, 1997. – 43 б.

1945-yilda Olim Sharafuddinov tuzgan “O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi”da “Zarbulmasal”dan parchalar e‘lon qilindi. 1951-yilda esa H.Yoqubov tomonidan asar nashrga tayyorlanib, “Zarbulmasal (Yapaloqqush hikoyasi)” nomi bilan “O‘zbek adabiyoti klassiklari” seriyasida kitobcha holda nashr etildi. Gulxaniydan qolgan adabiy meros “Zarbulmasal va g‘azallar” nomi bilan 1958 va 1960-yillarda chop qilindi va asarning matni shu nashrlar asosida darslik va qo‘llanmalarga kiritildi³³.

Bobning uchinchi bo‘limi “Asardagi maqollarning ma‘naviy xususiyatlari” deb atalgan. Maqollarni tadqiq etar ekanmiz, Muhammad Sharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarini obyekt qilib tanlaymiz. Mazkur asarda 400 dan ortiq maqol namunalarini ko‘rish mumkin. “Zarbulmasal”dagi maqollarning ma‘naviy guruhlarini tasnif etish uchun asarda keltirilgan maqollarni 49 ta ma‘naviy guruhlariga ajratdik. Bunday guruhlanishga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan 2005-yilda nashr etilgan “O‘zbek xalq maqollari” kitobidagi ma‘naviy guruhlarini asos qilib oldik. Maqollarni tadqiq etishda uning izohi muhim ahamiyatga ega. Maqollar og‘izdan og‘izga o‘tib kelganligi sababli ba‘zi maqollarning ma‘nosi tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Shuning uchun tadqiqotimizning mazkur bo‘limida “Zarbulmasal” asaridagi maqollarning ma‘naviy xususiyatlari haqida fikr yuritamiz. Buning uchun dastlab maqollarning ma‘naviy guruhlanishiga diqqat qaratamiz (Qarang: 1.3.-jadval).

1.3.-jadval

“Zarbulmasal” asaridagi xalq maqollarining ma‘naviy guruhlariga ko‘ra tasnifi

Ma‘naviy guruhlar	“Zarbulmasal” asaridagi maqollar
Tajribakorlik va kaltabinlik	1. Qalovini topsa, qor yonar, qalovini topmasa qoqshol o‘tin ham yonmas.
Donolik va nodonlik	2. Ko‘r tutganini qo‘ymas, kar eshitganini. 3. So‘zni aytg‘il uqqang‘a, jonni jonga suqqang‘a, aytib so‘zni netarsan, onadin yamon tuqqang‘a.
Sabab, bahona va natija	4. Karnay misdin, balg‘am isdin. 5. Oz oshqa imdod yo‘q.
Or-nomus va nomussizlik	6. Uyat o‘limdan qattiq. 7. Ermon yog‘ochining egilgani – singani, er yigitning uyalgani o‘lgani.

“Bor maqtansa topilur, yo‘q maqtansa chopilur” maqolida “o‘ziga yetarli miqdorda mulkka ega bo‘lgan odam maqtansa bo‘ladi, ammo o‘ziga yetarli darajada mulkka ega bo‘lmagan odam mavjud bo‘lmagan narsasi bilan maqtansa, uyatga qoladi” mazmuni ustunlik qiladi. Demak, maqtanayotganda ham ehtiyotkorlik zarur. Arzirlil sabab bilan maqtanish ham bir mardlikdir. Bundan kelib chiqadiki, ushbu maqol maqtanchoqlikni qoralashga qaratilgan. “Qizim senga ayturman, kelinim sen eshit” maqolini oila va qo‘shnichilik ma‘naviy guruhiga kiritish mumkin. Ba‘zan shunday bo‘ladiki, biron bir gapni tegishli odamning yuziga aytib bo‘lmaydi, boshqa birov orqali unga eshittiriladi. Gap tegishli odam farosatli bo‘lsa, bu gap uning o‘ziga tegishli ekanligini darrov fahmlab oladi va shunga ko‘ra ish tutadi.

³³ O‘sha asar.– 5- b.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Zarbulmasal” maqollarida an’ana va o‘ziga xosliklar mutanosibli**” deb nomlanadi. Bobning birinchi bo‘limi *“Devonu lug‘otit turk”* va *“Zarbulmasal” maqollarining qiyosiy-tipologik tahlili*” masalasini qamrab oladi.

Ma’lumki, *“Devonu lug‘otit turk”* – ilmiy, qomusiy asar, unda saqlangan 100 dan ortiq maqol asarning lug‘at qismida so‘zlarni izohlash asnosida keltirib o‘tiladi: *“Erik – erik er – tirishqoq, g‘ayratli odam; shu maqolda ham kelgan: erik irini yag‘lig‘, ermagu bashi qanlig‘ – tirishqoqning labi yog‘lik, erinchoqning boshi qonlik, chunki tirishqoq ko‘p ishlab, yaxshi taomlar – go‘sht, yog‘lar topadi. Shu bilan u moy oshaydi. Erinchoq o‘zining yalqovligi bilan ishdan qochadi. Xafalikdan boshiga uradi, uni qonatadi. Bu matal yalqovlikni tashlashga, g‘ayrat bilan ishlashga undab aytiladi”*³⁴. Bu jihatdan Gulxaniyning *“Zarbulmasal”* asarida maqollarning ishlatilishi ancha farqlanadi. *“Zarbulmasal”* – badiiy asar bo‘lib, maqol, matal kabi folklor namunalari asar qahramonlari tilidan berib borilgan: *“Anda Ko‘rqush aydi: “Bor maqtansa topilur, yo‘q maqtansa chopilur”, – degan yaxshilarning masalidur. Boyo‘g‘lining og‘zining bir burchidin chiqar: “Ming chordevor qizimning qalini”, deb. Holo... podshohimiz... Umarxon... zamonlarida... bir bo‘sh chordevor topilmas, uyalurmiz. Nechukkim, aytmishlar: “Yolg‘on masal turmas”, “Uyat o‘limdan qatig‘”*³⁵. Bu uslub qahramonlar xarakterini ochib berishga xizmat qilgan hamda asarning badiiy qiymatini yanada oshirgan, uslubiy ta’sirchanlikni ta’minlagan. Shu jihati bilan *“Zarbulmasal”* asari XVIII – XIX asr boshlarida – Gulxaniy yashagan davrda o‘zbek xalqi orasida keng ishlatilib kelingan xalq maqol, matal va iboralari saqlanib qolgan muhim yozma manba hisoblanadi.

*“Devonu lug‘otit turk”*da qo‘llanilgan maqollarning tarkibidagi ko‘pgina so‘zlar *“Zarbulmasal”* yozilgan davrda iste’moldan chiqib, ancha eskirib qolgan bo‘lsa, ayrim maqollar tarkibi o‘zgarib, ixchamlashib, badiiylik jihatdan sayqallashgani ko‘zga yaqqol tashlanadi. *“Devonu lug‘otit turk”* va *“Zarbulmasal”* asarlarida aynan bir xil maqollar uchramaydi, lekin ma’no jihatidan bir-biriga yaqin yoki ayni bir maqolning ekvivalentiga duch kelishimiz mumkin. Quyidagi jadvalda ushbu ikki asardan o‘zaro mazmunan hamohang deb sanalgan maqollar keltirilgan.

³⁴Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. – 100-б. // www.ziyouz.com kutubxonasi.

³⁵ Гулханий. Зарбулмасал. “Ўқитувчи” нашриёти. – Тошкент, 1972.

“Devonu lug‘otit turk”	“Zarbulmasal”
“O‘t” degan bilan og‘iz kuymaydi	“Halvo” degan birla og‘iz chuchimas
Har kishi o‘zing bo‘lmas, begonaga sir aytib bo‘lmas	Inonmag‘il do‘stingga, somon tiqar po‘stingga

“Zarbulmasal” asarida “Halvo degan birla og‘iz chuchimas” maqolining izohi aynan bir xil. *o‘t* va *halvo* so‘zi qisman antonim bo‘lsa ham, maqol izohlanayotganda bu narsa sezilmaydi. “Halvo degan birla og‘iz chuchimas” maqoli kishi shirin orzu-xayollar bilan yaxshi yashash, ammo bu bilan ko‘zlangan maqsadga, niyatga yetishish qiyin ekanligini uqtiradi. Bularga yetishmoq uchun harakat qilish, jon kuydirib ishlash, yelib-yugurish, bu yo‘lda uchraydigan qiyinchiliklarga chidash va uni yengib o‘tish kerak deb izohlanadi. “O‘t degan bilan og‘iz kuymaydi” maqoli esa kishi yomon xayollar bilan yashasa, yomon maqsadni ko‘zlasa, diliga tuggan yomon niyatiga, albatta, yetadi degani emas. Ikkala maqolda ham faqat orzu-xayollar bilan maqsadga erishib bo‘lmaydi, degan fikr ta’kidlanadi.

“Devonu lug‘otit turk” asaridagi “Har kishi o‘zing bo‘lmas, begonaga sir aytib bo‘lmas” maqoli bilan “Zarbulmasal” asaridagi “Inonmag‘il do‘stingga, somon tiqar po‘stingga” maqoli deyarli o‘xshash. “Inonmag‘il do‘stingga somon tiqar po‘stingga” maqoli har qanday odamni ham do‘st deb o‘ylab, sirlarni aytish joiz emas deb ogohlantiradi. Do‘st niqobi ostida yurgan dushman barcha sirlarni bilib olgandan so‘ng u odamni sotib, sirini fosh etib, unga zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun duch kelgan har qanday odamga ishonish kerak emas. Avvalo, uni sinab, so‘ngra unga ishonch bildirsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yuqoridagi maqoldan kelib chiqadigan xulosa shu. Ikkala maqol ham ma’no jihatdan bir xil: “Zarbulmasal” asarida obyekt aniqroq ko‘rsatilgan; ya’ni “Devonu lug‘otit turk” asarida “begona” so‘zi qo‘llanilgan bo‘lsa, “Zarbulmasal” asarida “do‘st” so‘zi qo‘llanilgan. Bu so‘zlar bir-biriga antonim bo‘lgani bilan maqol umumiy izohlanganda ikkita antonim so‘z bir xil ma’no tashishga xizmat qiladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi bo‘limi “*Zarbulmasal*” asaridagi maqollarda *badiiy san’atlar*” deb atalgan. Asarda ma’noga asoslangan san’atlarning maqollarda aks etishi ko‘p kuzatiladi. Xalq maqollari badiiyatini ta’minlab turuvchi vositalardan biri bu **majoz**dir. Unda o‘simlik, narsa-predmetlar va hayvonlar orqali insonlarga xos bo‘lgan xarakterlar ochib beriladi. Hayvonlar obrazi ishtirok etgan ibratli kichik hikoyalar, ya’ni masallar asosida ham majoz yotadi. “*Sigir suv ichguncha, buzoq muz yalar*”, “*Daraxtni o‘zga joyga o‘rnatsalar ko‘karmas*” kabi maqollarda majoz qo‘llanilgan.

Maqollarda **tazod** san’ati ko‘p uchraydi. Buning asosiy sabablaridan biri unda qarshilantirish orqali maqolning ma’nosi ochib beriladi. Maqollardagi voqelikning turli-tuman xossalari: hajm, rang, uzunlik, masofa, xarakter, xislatlar, turli xil xususiyatlar kabi jihatlar qarama-qarshi qo‘yiladi. Xalq maqollarida ijobiylik va salbiylik tazod san’atini yuzaga keltiradi. Ular turli mavzular doirasida bo‘lishi mumkin. Masalan, yaxshilik va yomonlik, do‘stlik va dushmanlik, rostgo‘ylik va yolg‘onchilik va boshqalar. Masalan: “*O‘zingni er bilsang, o‘zgani sher bil*” maqolida *o‘zingni* va *o‘zgani* so‘zlarida tazod san’atining namoyon bo‘lganini

ko‘rishimiz mumkin. Bu maqolda tazodni hosil qilayotgan so‘zlar lisoniy antonim emas, ammo maqol matnida qarshilantirishni keltirib chiqargan.

Xalq maqollarida ijobiy obrazlar bo‘rttiriladi, shunga qarama-qarshi tarzda salbiy obrazlarning salbiylik darajasi ham bo‘rttiriladi. Bu holat maqollarda **mubolag‘a** san‘atini yuzaga keltiradi. “*Uyat o‘limdan qattiq*” maqolida mubolag‘ani sezish mumkin. Bu hayotda o‘limdan yomonroq narsa yo‘q, lekin uyatga qolish yaxshi narsa emasligini bo‘rttirib ko‘rsatish uchun *o‘limdan qattiq* so‘zi orqali dalillangan. “*Kichkina demang bizni, ko‘tarib uramiz sizni*” maqolida **mubolag‘a** san‘ati yaqqol ko‘rinib turibdi. Lof urish, bo‘rttirish usulidan foydalanilgani tufayli maqolning ishlatilish ko‘lami haligacha davom etmoqda. Bu maqolda mubolag‘aning **tablig‘** usulidan foydalanilgan. **Tablig‘** – tasavvur qilish mumkin, amalga oshirish qiyin bo‘lgan bo‘rttirilgan tasvir usuli hisoblanadi³⁶.

“Zarbulmasal”da shaklga asoslangan san‘atlarning maqollarda aks etishi ham ko‘p kuzatiladi. **Tarse’** san‘atida baytda misralardagi ost-ust joylashgan so‘zlar vazndosh, ohangdosh va qofiyadosh bo‘lib keladi³⁷. Masalan:

*Erga bersang oshingni, erlar silar boshingni,
Itga bersang oshingni, itlar chaynar boshingni.*

Alliteratsiyaning maqol badiiyatidagi eng asosiy vazifalaridan biri uning maqollar talaffuziga o‘ynoqilik va ritm, estetik-intonatsion butunlikni berishidir. Masalan, “*Qalovini topsa, qor yonar, qalovini topmasa qoqshol o‘tin ham yonmas*” maqolida “q” undoshlari alliteratsiyani yuzaga keltirgan. Yoki “*Yomonga yondoshsangiz, balosi yuqar, qozonga yondoshsangiz qarosi yuqar*” maqolida “y” undoshida alliteratsiya hodisasini ko‘rish mumkin.

Maqollarida o‘ziga xos ohangdoshlikni hosil qiluvchi leksik-takror usullaridan biri **anafora**dir. U so‘z yoki so‘z birikmalarining misralar boshida kelishiga asoslanuvchi badiiy san‘atlardan biridir. Anafora she‘riy shakldagi maqollarga o‘ziga xos ohang beradi. Masalan:

“Yomon otga yol bitsa, yoniga to‘siq bog‘latmas,

Yomon erga mol bitsa, yoniga qushni qo‘ndirmas.” Mazkur maqolda misra boshida kelgan yomon so‘zi leksik takror bo‘lib anafora hisoblanadi.

«Zarbulmasal» maqollarida shakl va ma‘noga asoslangan san‘atlarning namoyon bo‘lishi e‘tiborlidir.

“Shirin-shirin so‘zlasang ilon inidan chiqar,

Achchiq-achchiq so‘zlasang musulmon dinidan chiqar”.

Bu maqolida *shirin-shirin* va *achchiq-achchiq* so‘zlarida **takrirdan** foydalanilgan, shu bilan birga, bu so‘zlar qarshilantirilib, tazod san‘ati qo‘llanilgan, *musulmon* va *din* so‘zlari orqali **tanosib** san‘ati yuzaga kelgan.

“Zarbulmasal” maqollarida badiiy san‘atlarning in‘ikosini tahlil qilish jarayonida shunga guvoh bo‘ldikki, mazkur asardagi maqollarda ma‘noga asoslangan san‘atlardan tazod, tamsil, tanosib, tadrij, tashxis, majoz, mubolag‘a, ruju, istiora, husni ta‘lil, parallelizm kabi badiiy san‘atlar ko‘p uchraydi. Shaklga asoslangan badiiy san‘atlardan esa tarse’, ellipsis, alliteratsiya, assonans, anafora kabi lafziy san‘atlarni uchratish mumkin. Shuni ta‘kidlash joizki, bir maqol birgina

³⁶Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – 297-б.

³⁷О‘sha asar.– 138- b

badiiy san'at bilan chegaralanib qolmaydi. Bir baytda bir nechta badiiy san'atning qo'llanish holati tez-tez uchraydi. Maqollarni badiiy san'atlar jihatidan tahlil qilish uning ma'nosini, ta'sirchanlik darajasini, qo'llanilish doirasini aniqlashga yordam beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Zarbulmasal**"dagi maqollar badiiyatining matniy tahlili" deb nomlangan. Mazkur bobning birinchi bo'limi "*Nashr va maqol matni muammolari*" deb ataladi.

Gulxaniy va uning ijodi A.Qayumov, M.Sale, Fitrat, B.Karimov, R.Muqimov, F.Is'hoqov, M.Qo'shjonov, M.Qo'shmoqov, A.Asrorov, S.Dolimov, H.Yoqubov va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan. 1948-yilda samarqandlik adabiyotshunos R.Muqimov Gulxaniy va uning adabiy merosi haqidagi ishlarini jamlab, "Gulxaniyning hayoti va adabiy faoliyati" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Gulxaniy ijodini ilmiy jihatdan baholashda H.Yoqubovning Gulxaniy asarlari nashriga yozgan kirish so'zi, akademik V.Abdullayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligidagi adabiy portreti, akademik A.Qayumovning "Qo'qon adabiy muhiti" monografiyasida Gulxaniy hayoti va ijodiga ajratilgan o'rinlarning, O'zFA haqiqiy a'zosi M.Qo'shjonov va tilshunos olim X.Nazarovanning "Zarbulmasal"ning badiiy xususiyatlari, tili va uslubini o'rganishga doir ishlari muhim ahamiyatga ega bo'ldi³⁸.

